

УДК 911.2(575.1)

Mirzoyeva I.E.

BuxDU "Ekologiya va geografiya" kafedrası

katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD)

O'zbekiston, Buxoro

Muqumova M.M.

BuxDU Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

O'zbekiston, Buxoro

O'RTACHO'L HUDUDINING TABIIY GEOGRAFIK

O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rtacho'l vohasining o'rganilish tarixi, geografik o'rni, chegaralari, geoekologik muammolari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'rtacho'l, Varaxsha, Davandog', Ayronchi, qo'rg'on, voha, chaylalar, kapalar, paleolit, Qiziltepa, Quyimozor, Hazora, Kalaquduq, yaylov.

Mirzoyeva I.E.

BukhsU, Ecology and Geography

Doctor of Philosophy (PhD) in Geography, Senior Lecturer

Uzbekistan, Bukhara

Muqumova M.M.

2nd year master's student in Geography at BukhsU

Uzbekistan, Bukhara

HISTORICAL STUDY OF THE NATURAL GEOGRAPHY OF THE ORTACHOL REGION

Abstract: This article provides information on the history of the study, geographical location, and geoecological problems of the Urtachul oasis.

Keywords: Ortacho'l, Varakhsha, Davando'g', Ayranchi, fortress, oasis, huts, shelters, Paleolithic, Qiziltepa, Quyimozor, Hazora, Kalaquduq, pasture.

Har bir hudud o'ziga xos tabiiy xususiyatga ega bo'lib inson o'z hayoti davomida tabiatdan foydalanishda, mazkur hududning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ya'ni tabiat bilan uyg'un yashashga, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi. Ana shunday joylardan biri Quyi Zarafshon tabiiy okrugiga tegishli joy O'rtacho'l vohasidir.

Tarixdan ma'lumki, Qiziltepa tumani va uning atroflarini arxeologik ilmiy tekshirish ishlarini, akademik U.A.Shishkinning "Varaxsha" (Moskva, 1963 yil) kitobida talaygina dalillar berilgan. 1934 yilda Buxoro vohasini tekshirish uchun A.U.Yakubovskiy boshchiligidagi olimlar guruhi ish boshladi. Bu guruh Buxoro shahridan Samarqand shahrigacha bo'lgan joylarda tekshirish ishlarini olib borishi, mo'ljallangan edi. Olimlar belgilangan joylarda, arxeologik qazilma ishlarini o'tkazib, odamlar yashagan makonlarni topdilar.

Akademik A.Muhammadjonov o'zining "Qadimgi Buxoro" kitobida, "Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida va I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoning dashtlik yerlarida yashayotgan aholi hayotida sodir bo'lganidek, Zarafshon vodiysining quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo'jaligida ham tez sur'atlar bilan rivojlanish jarayoni kuzatiladi" deb yozadi.

O'rtacho'l to'g'risida alohida tarixiy yozma manbaga ega bo'lmasakda, biz bu hudud tarixini Qiziltepaning boshqa hududlari to'g'risidagi tarixini dalillarni solishtirish orqali o'rganamiz. 1955-1957 yillarda akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik tekshirish guruhi Quyimozor qo'rg'onida tekshirish ishlari olib borgan olimlar bu yerdagi bir qancha qabrlarni ochib tekshirdi. Mana shu ma'lumotlarni taqqoslab ko'rsak, O'rtacho'l hududiga ham to'g'ri keladi.

Akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologik tekshirish guruhi Ayronchi qishlog'ining janubidagi Davandog', uning atrofidan ham juda ko'p sopol buyumlar dehqonchilik asbob-uskunolari topilgan, O'rtacho'l massivida ham uzoq o'tmishda odam yashaganligiga ishora qilishimiz mumkin. Ayronchi biror urug'ning nomi bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelganlar. Shuningdek,

Quyimozor suv omborining sharqidagi tepaliklarda temirdan yasalgan buyumlar, qilich, xanjar, yoy o'qining uchlari topilgan. Bular olimlarning taxminlariga ko'ra, eramizdan avvalgi I asrning yoki eramizning I asriga to'g'ri keladi.

Olib borilgan arxeologik tekshirishlar kishilik tariximizning hamma bosqichlarida: paleolit (qadimgi tosh asri) bo'lgan davrlarga oid ko'plab yodgorliklar borligini aniqlaydi. 1956–1965 yillarda K. Hamroyev tomonidan Qiziltepa, Quyimozor, O'rtacho'l, Hazora atroflarida miloddan avvalgi VI–IV asrlarga, eramizning III–V asrlariga oid juda ko'p joylar, ya'ni eski xarobalar, qabrstonlar, qo'rg'onlar, suv yo'llari, tepaliklar tekshirildi.

Shuningdek, O'rtacho'l yaylovlari, quduqlar, o'tloqlar, olimlar tomonidan tekshirilib, tilga oligan, o'rganilgan. O'rtacho'l dashtligi Qiziltepa tumanining janubiy-sharqida joylashgan past tekisliklardir. Uning O'rtacho'l deb atalishiga Ko'ktog' bilan Kalaquduq, Malikcho'l bilan Qarnabcho'l oralig'idagi bepoyon dashtlik ekanligidan deb taxmin qilinadi. O'rtacho'l massivi Qiziltepadan o'tadigan temir yo'lining sharqiy tomonidan boshlanadi.

O'rtacho'l vohasining g'arbiy chegarasi To'dako'l suv havzasining g'arbiy qismidan boshlanib, sharqiy chegarasi Samarqand viloyatining Nurobod tumanidagi "Qarnob" davlat naslchilik fermasigacha uzunligi 69 km masofani tashkil etadi.

O'rtacho'l vohasining shimoliy chegarasi Navoiy viloyatining Navoiy tumani hududida joylashgan Ko'ktog'dan boshlanib, janubiy chegarasi Buxoro viloyatining Qorovulbozor, Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanlari yetarlicha, uzunligi 65 kilometrdan iborat masofani tashkil etadi. O'rtacho'l vohasi tuman markazidan 30 km uzoqlikda bo'lgan masofada joylashgan. O'rtacho'lning umumiy yer maydoni 98 540 gektardan iborat.

Vohaning shimoli-sharq va janub tomonlari Zirabuloq – Ziyovuddin tog' tizmalari bilan o'ralgan va janubi-g'arbga To'dako'l suv ombori chuqurligi tomoniga qarab umumiy nishablikka ega bo'lgan tog'lararo yassi baland past tekislikdir.

O'rtacho'l vohasi faqat Navoiy viloyatidagina emas, balki butun O'zbekistonda o'zlashtirilayotgan yirik qo'riq yerlardan biridir. O'rtacho'l yerlarini o'zlashtirish 1972 yildan keyin ayrim sayyor brigadalar tomonidan boshlangan edi. O'rtacho'l vohasi Navoiy shahridan 45 kilometr janubi-g'arbidan, Buxoro shahridan 45-50 kilometr shimoli-sharqda joylashgan. Uning shimol va janub tomonlari Zirabuloq-Ziyovuddin tog' tizmalari bilan o'ralgan va janubdan g'arbga To'dako'l suv ombori chuqurligi tomonga qarab umumiy nishablikka ega bo'lgan tog'lararo yassi baland past tekislikdir.

O'rtacho'l vohasi Toshkent-Ashxobod temir yo'lining Qiziltepa orqali o'tadigan yeridan boshlanib, Samarqand viloyatining Nurobod tumanigacha bo'lgan masofani o'z ichiga oladi. O'rtacho'l vohasi hududida katta tepaliklar deyarli yo'q, unda-bunda kichik do'ngliklar bor, xolos. Shimoliy tomondan Ko'ktog' xuddi burgutdek O'rtacho'l chiroyini yanada ko'rkamlashtirib, turibdi. Amu-Buxoro mashina kanalidan keladigan suv ko'pchilik hollarda osma beton ariqlar orqali O'rtacho'lning ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi.

Katta maydonli yerlarning ancha tekis ekanligi, u joyda sug'orish ishlari uchun ancha qulaylik tug'diradi. Yerlarni o'zlashtirish, meliorativ holatini yaxshilash maqsadida, bir necha meliorativ tadbirlar olib borilmoqda.

O'rtacho'l yerlari baland-pastligi jihatidan bir-biridan keskin farq qilmaydi. Bu yerda baland tepaliklar va keskin chuqurliklar deyarli yo'q. O'rtacho'l yer tuzilishi jihatidan katta tekislik bo'lib, ba'zi yerlarda tepaliklar bor. "Sardoba" tepaligi tarixiy obida sifatidan o'tmishda savdo karvonlari, odamlar, qo'ylar uchun suv saqlagich vazifasini o'tagan.

O'tmishda O'rtacho'l Buxoro amirligiga qarashli yaylov bo'lib, unda amirlikning 170-180 ming bosh qo'y-qo'zilar boqilgan. O'rtacho'l yaylovlarida har bir quduq atroflarida cho'ponlar, pastgina qora uylar, chaylalar, kapalar, yerto'lalar qurib, qo'y va echkilarni boqqanlar. O'rtacho'l da 60 ta quduq bo'lib, ular odamlar va chorva mollari uchun suv manbai vazifasini o'taganlar. Quduqlar orasida Koriz, Shoyiqozoq, Quyumlik, Shoydaroq, Yangiquduq,

Tandircha, Shoyixatip, Taniqli, Beshtepa, Toshqo'tan, Qirkquduq, Oqqo'ton, Jarqo'ton, Darvoza, Qumqo'ra, Buermana, Sho'rquduq, Shopo'lot, Sho'rcha, Sultonqo'ra, Shohimardon, Bitkana, To'qitepa, Hofizak, Qorayotoq, To'dako'l, Do'ngakli, Xuroson, Yulduzqoq, Rahimquduq, Egricha, Galaquduq, Choytovoq, O'g'riqoq, Qirqquloq, Iskandar, Tetalon, Yunusquduq, Ochilqora, kabi quduqlar mashhur edi.

Hozirgi kunda O'rtacho'l hududida antropogen yukning ortiqchaligi tufayli landshaftlarning mahsuldorligi, yaylov resurslarining unumdorligi kamayib, kambag'allashgan. Gipslangan uchastkalarda esa gips sho'rxoklangan bo'lib bu esa tuproqning sho'rlanishiga va diffuzion hodisalar avj olishiga olib keldi. Oqibatda bu yerlarda tekislash ishlari takroran olib borilgan. Ammo O'rtacho'l sharoitida bu yerlarning gipsli, kuchli gipslangan tuproqlar yuzasini tekislashtirish kerak edi. Tekislash ishlarining olib borilishi natijasida bu yerlarning ayrim joylarida mutlaqo unumsiz gips qavati ochilib qolgan. Bunday joylarda gipsning miqdori 0,5-1,0%ni tashkil etadi. Bunday yerlarda chuqurchali yoki zovurli usulda mayin tuproq tashib kelish yo'li bilan tokzor va mevali chorbog'lar barpo qilinishi bilan yoki ko'p yillik ekinlar ekilgani ma'qulroq. Xulosa o'rnida, O'rtacho'l hududidan samarali foydalanish maqsadida quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

1. Yerlarni meliorativlash ishlarining turlari va agrotexnik tadbirlarini kompleksini ishlab chiqish - kollektor-drenaj tarmoqlari ko'rish, sho'r yuvish turli xil meliorativ tadbirlarni amalga oshirish eng asosiy dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

2. O'rtacho'l vohasini o'zlashtirishda atrof-muhitni xususan tuproqni muhofaza qilishni hisobga olgan va unga rioya qilgan holda kompleks ish olib borilishi, tuproqning takroran sho'rlanishi hamda gipsli tuproqlarni erroziya jarayonlari namoyon bo'lishi mumkinligiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бозоров З. Ўртачўл, Қизилтепа, 1998. 64 б.

2. Mirzoyeva I.E. To‘dako‘l suv omborining rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari // Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2023. – B. 276-280.
3. Mirzoyeva I.E., Nematov A.N. O‘rtacho‘l voha landshaftlarini samarali tashkil qilishning geografik jihatlari // Iqlim o‘zgarishi sharoitida cho‘l – voha ekosistemi: muammolar va yechimlar. Xalqaro simpozium materiallari. 2023. – B. 157-160.
4. Muhammadjonov A. “Qadimgi Buxoro” Toshkent, 1991 yil, “Fan” nashriyoti
5. Nazarov I.Q, Allayorov I.SH. Buxoro geografiyasi. Buxoro, 1994. 67 b.
6. Nazarov I.Q, Allayorov I.SH, Raxmonov U, Yavmutov D. O‘rtacho‘l geotizimlarining antropogen omil ta’sirida cho‘llashuvi va uning oqibatlari xususida. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. Toshkent, 1999. 22-24 b.